



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI  
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Zokirova Sabohat Baxodirovna**

*Paxtachi tumani 17- maktab o'qituvchisi*

## O'QUVCHILARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda, o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhitni shakllantirishda zamonaviy modellarning o'zni ijtimoiy zarurat mahsuli sifatida bugungi kunda ta'lim sohasida muhim ahamiyat kasb etayotgani haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, shaxs, pedagogika, texnologiya, bilim, munozara, muammo, baholash.

Ijodiy qobiliyat-bolaning yosh davridanoq shakllantirilishi va har tomonlama rivojlanishida tarbiyaning asos qirradi deb qaralishi lozim. Ijodiy qobiliyat o'quvchilarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlarini shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yaxlit pedagogik jarayonda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonning mohiyati, uning o'zni va rolini bolaning shakllanishi jarayonining umumiy tuzilishida aniqlash osonroq.

Bola intellekti rivojlanishi madaniy yoki ta'limiy muhit ta'sirida tezlashishi yoki sustlashishi mumkin.

Ta'lim muhitining ta'siri faoliyat uchun qo'llanilayotgan usulga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyada “Aqliy hujum”, “Ajurli Arra”, “Munozara”, “O‘z- o‘rningni top”, “Kichik guruhlarda ishlash” kabi metodlar bor. Ushbu metodlar ichida “Munozara” metodi to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu metod yordamida o‘quvchilarga muayyan muammo bo‘yicha to‘liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni o‘quvchilar ayovsiz “shturm” qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganadilar.

1. Munozara olib boruvchi- boshlovchi (o‘qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni tanlaydi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga “aqliy hujum” topshirig‘ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- Hujumdan maqsad –muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko‘proq taklif etish

- O‘z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g‘oyalar umumiy fikrga zid bo‘lsada, hech biri rad etilmaydi, boshqa ishtirokchilar g‘oyalarni ham rivojlantiring.

- Taklif etilganlarni baholashga urinmang, bu ish bilan siz keyinroq shug‘ullanasiz.

3. Boshlovchi kotibini tayinlaydi va u yuzaga kelgan barcha g‘oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so‘zda chiquvchilar tartibi o‘rnatiladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o‘z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi.

Agar biror bir kishi tomonidan “aqliy hujum” ni o‘tkazish qoidalari buzilsa, boshlovchi zudlik bilan muhokamaga aralashadi. Birinchi bosqich yangi g‘oyalar paydo bo‘lganga qadar davom etadi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e‘lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. “Aqliy hujum” ishtirokchilari guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g‘oyalarni mustahkamlaydilar. Go‘yalar guruh bo‘yicha birlashtirilib, mualliflarni tahlil qilishga kirishadilar va natijaga o‘rtaga qo‘yilgan muammoning yechimiga tegishli bo‘lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

Izoh: Amerikacha munozara metodi turli shakllarda tashkil etilishi e‘tirof etilganda. Bizning amaliyotda eng ko‘p tarqalgan turi-bu “telemunozara” hisoblanadi yoki aniqroq aytadigan bo‘lsak, jurnalist Quddus A‘zamning o‘quvchilar bilan telemuloqot ana shu metodning o‘zginasidir.

O‘qitishning individuallashtirish “biologik” “ijtimoiy” xususiyatlarini, ya’ni insonda iste’dod bo‘lishi mumkinligini, lekin u faol ishlar bilan shug‘ullanmasa, iste’dodlar tashqi ta’sirlar, tashqi sharoitlar natijasida o‘z-o‘zidan qobiliyatga aylanmasligini yaqqol tushunishni talab qiladi. Ta’lim o‘zining mazmuni va metodikasiga ko‘ra tashqi ta’sirdir. Lekin u o‘quvchi iste’dodi hisobga olinsagina kutilgan natijani berishi mumkin.



O‘qitishning individuallasuvi jamoa bilan yanada chuqur bog‘lanishiga olib boradi, jamoadagi o‘zining “men” ini namoyish qilishni , shaxsga aylanishning yorqin istiqbollari vujudga keltiradi.

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda qiziqarli va muammoli, mantiqiy topshiriq ta’lim metodlaridan va o‘yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich sinf darslarida bolalarni ijodga undashning yo‘llari va imkoniyatlari juda ko‘p. Ertak qahramonlarini harakatini o‘zgartirib bolalarni yangi ertak to‘qishga, tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratishga, ya’ni o‘sha qahramonlar bilan boshqa ertak to‘qishga o‘rgatish, xotira bilan bog‘liq so‘zlar va hodisilarni eslashga, sinfda hikoyachi rolini bajarishga, o‘ylab topilgan narsani aytib berishga, gap, matn tuzishga odatlantirish orqali ham ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Ijodiy faoliyatni shakllantirishda mantiqiy o‘yinlar, boshqotirmalar bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirishga yordam berib, bolalarda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. R. Mavlonova, O.To‘rayeva, Q.Xoliqberdiyev Pedagogika 2002y.
2. N.Saidahmedov Yangi pedagogik texnologiyalar 2004y.